

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya yig'ilishiga doir



Dushanbe shahrida 29-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda rahbarligida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning 7-yig'ilishi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlarining qat'iy siyosiy irodasi va oqilona sa'y-harakatlari tufayli qisqa fursatda mamlakatlarimiz hamkorligi strategik sheriklik darajasiga chiqdi. 2018-yildagi oliy darajadagi o'zaro tashriflar o'zbek va tojik xalqlarini ko'p yillar davomida qiynab kelgan muammolar yechilishiga sabab bo'ldi. Chegaralar ochilgani, havo, avtobus, temir yo'l qatnovi tiklangani, viza tartibi bekor qilingani xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlamoqda.

Yig'ilishda savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, madaniy-gumanitar sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni yana-da rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Uchrashuv yakunlari yuzasidan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning 7-yig'ilishi bayoni imzolandi.

Tashrif doirasida O'zbekiston - Tojikiston ishbilarmon doiralari biznes forumi va Ishbilarmonlar kengashining yig'ilishi o'tkazildi. O'zaro muloqot davomida ikki mamlakat biznesmenlari manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati va hamkorlikni yana-da rivojlantirish istiqbolini muhokama qildilar.

Yig'ilish doirasida umumiy qiymati 712 million dollardan ortiq qiymatga ega investitsiya va eksport-import shartnomalari imzolandi.

Tashrif doirasida "Artel Avesto Electronics" O'zbekiston - Tojikiston qo'shma korxonasi ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirini Dushanbe shahrida Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon qabul qildi.

Manba